

Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi “O‘zagroinspeksiya” tomonidan 2023-yilning I-yarmida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan hisobot-axborot

Assalomu alaykum!

“O‘zagroinspeksiya” tomonidan qishloq va suv xo‘jaligi sohalarida qonunchilik talablariga rioya etilishi ustidan hisobot davrida quyidagi ishlar amalga oshirildi.

Jumladan, xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarda **5 508** ta profilaktika tadbirdlari o‘tkazilib, amaliy yordamlar ko‘rsatilgan.

Bundan tashqari, inspektorlar tomonidan **48 873** ta monitoringlar o‘tkazilib, tashkilot va korxonalarga **25 162** ta ogohnomalar kiritilgan.

Joriy yilning **olti oy** davomida jami **2 279** ta tekshirishlar o‘tkazilgan bo‘lib, shundan, **324 tasi** tadbirkorlik sub’ektlarida Biznes-ombudsmenni xabardor qilish tartibida amalga oshirilgan.

Tekshirishlar davomida aniqlangan qonunbuzilishi holatlari yuzasidan tashkilot va korxonalarning mas’ul mansabdor shaxslariga nisbatan jami **4 987** ta **holatda** ma’muriy jarimalar qo‘llanilgan bo‘lsa, **603** ta holat bo‘yicha moliyaviy sanksiyalar hisoblangan.

Xususan, **751** ta taqdimnomalar tegishli tashkilot va idoralarga kiritilib, **222** ta materiallar qonuniy qaror qabul qilish uchun sud va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlarga yuborilgan.

Qishloq xo‘jaligida suv resurslaridan foydalanishni nazorat qilish yo‘nalishida suv iste’moli qoidalariga rioya etilishi ustidan qat’iy nazorat olib borilib, qonunbuzilish holatlarini erta oldini olish maqsadida joylarda **4 624** ta **amaliy tadbirlar** o‘tkazildi.

“O‘zagroinspeksiya” xodimlarining amaliy yordami bilan **887** ta **holatda** suvdan foydalanuvchi va suv iste’molchilar o‘rtasidagi nizoli holatlar bartaraf etildi, **1000** dan ortiq holatda suv ta’minoti og‘ir bo‘lgan hududlardagi suv iste’molchilariga suv yetkazib berishda ko‘maklashildi, 472 ta yaroqsiz holatga kelgan suv xo‘jaligi ob’ektlaridan behuda suv oqizib yuborilishi to‘xtatilib, joylarda 262 marotaba tegishli tashkilotlar hamkorligida o‘quv amaliy seminarlari tashkil qilindi

Shuningdek, joriy yil hosilidan urug‘lik don yetishtirish uchun **128** ta **tumanda** tuzilgan aprobatsiya komissiyalari tomonidan urug‘lik g‘alla maydonlarida dala aprobatsiya ko‘rigi o‘tkazilishini muntazam nazorat qilib borildi.

O‘rganishlar natijasiga ko‘ra, Respublika bo‘yicha **3 ming 228** ta xo‘jaliklarning **93 ming 442** hektar urug‘lik g‘alla maydonlarida dala aprobatsiya

ko‘rigi o‘tkazilib, shundan 80 ming 246 hektar yoki 86 foiz maydon yaroqli hamda **17 773 hektar** yoki **14 foiz** maydonlar turli sabablarga ko‘ra yaroqsiz deb topilgan.

Shuningdek, Respublika hududlarida 2023 yil paxta hosili uchun **136 ta** paxta to‘qimachlik klaster korxonlari va **30 ming 116 ta** fermer xo‘jaliklari tomonidan **1 mln. 12 ming** maydonga chigit ekish ishlari amalga oshirildi.

“O‘zagroinspeksiya” tomonidan joylarda chigit ekish ishlarini o‘z vaqtida va sifatli o‘tkazilishi bo‘yicha monitoring tadbirlari o‘tkazilib, **3 ming 173 ta** fermer xo‘jaliklarining **22 259 hektar** maydonida chigit ekishda xato-kamchiliklar aniqlandi.

Shuningdek, 2023 yil hosili uchun qishloq xo‘jaligi ekinlarini joylashtirish bo‘yicha o‘tkazilgan nazorat tadbirlar davomida, **6 ming 393 ta** fermer xo‘jaliklarida **54 ming 23 hektar** maydonda belgilangan agrotexnik talablar buzilganligi ma’lum bo‘ldi.

Aniqlangan kamchiliklarni bartaraf qilish yuzasidan, soha rahbarlariga taqdimnomalar va ogohlantirishlar kiritilib, yozma ko‘rsatmalar berilishi ta’minlandi

Shuningdek, yog‘-moy korxonalarining paxta texnik chigitini to‘liq texnologik siklda maqsadli qayta ishlaganligi hamda ularning mahsulot sifatini tasdiqlovchi gigienik xulosa va muvofiqlik sertifikatlariga ega ekanligi ustidan nazorat amalga oshirib kelinmoqda.

Xususan, 2023-yilning 1-chi yarmida jami 22 ta (shundan 6 ta korxona qayta tekshirilgan) korxonalarda nazorat tadbirlari o‘tkazildi.

Tekshirilgan **22 ta yog‘-moy korxonalaridan**, 2 tasi faoliyati esa qarorda belgilangan talablarga muvofiq emasligi ma’lum bo‘ldi.

Shuningdek, Qishloq xo‘jaligi, melioratsiya va yo‘l qurilish texnikalarini texnik holatini ulardan foydalanish samaradorligi, shuningdek, servis va ta‘mirlash xizmatlarining sifati ustidan qat‘iy nazorat o‘rnatilib, o‘tkazilgan nazorat tadbirlari va monitoringlarda qishloq xo‘jaligi, melioratsiya va yo‘l-qurilish texnikalaridan texnik jihatdan foydalanish va texnika xavfsizlik qoidalarini qo‘pol ravishda buzilish holatlari bo‘yicha jami **2 ming 136 ta** ma’muriy bayonnomalar rasmiylashtirilgan.

Joriy yilning 1-yarmida jami **16 mingdan ortiq** qishloq xo‘jaligi, melioratsiya va yo‘l-qurilishi texnikalari davlat ro‘yxatiga olinib, traktor va boshqa o‘ziyurar texnikalarga 15 152 dona davlat raqami belgisi, 54 623 ming dona yangi ID-karta (plastik) shakldagi xujjatlar, jumladan 32 340 dona texnik pasport va texnik guvohnoma, **22 ming 283 dona** traktorchi-mashinist guvohnomasi berilgan, **115 ming donaga** yaqin texnikalar majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazilgan.

Chorvachilikda naslchilik ishini nazorat qilish yo‘nalishida Xalqaro qishloq xo‘jaligi xayvonlarini ro‘yxatga olish tashkiloti (ICAR) talablaridan kelib chiqib Respublikada yagona chorvachilik sub’ektlarini ro‘yxatga olish bo‘yicha elektron

“Chorva moduli” ishlab chiqildi va unda 171 tadan ortiq indikator ko‘rsatkichlarini o‘z ichiga qamrab olgan jami 19 ming 282 ta sub’ektlar ro‘yxati shakllantirildi.

Respublika bo‘yicha keltirilgan jami 87 ming 149 bosh chorva , 1 mln. 17 mingga yaqin bir kunlik naslli jo‘ja, 8 mln. 373 yarim ming dona naslli tuxumlar hamda 10 bosh naslli otlar o‘rnatilgan tartibda davlat reestriga kiritilishi nazorat qilindi.

O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi qonuni ijrosi yuzasidan joriy yilning 1-chi yarmida “O‘zagroinspeksiya”ga jami 396 ta murojaat kelib tushgan bo‘lib, shundan 306 tasi ko‘rib chiqilgan, 148 tasi qanoatlantirilib, 152 tasiga tushuntirish berilgan.

Bundan tashqari, “O‘zagroinspeksiya” tomonidan jami 20 652 ta jismoniy va yuridik shaxslarning vakillari qabul qilingan.

E’tiboringiz uchun rahmat, salomat bo‘ling!